

## **O‘SMIRLIK DAVRIDA AXBOROT OLISH MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH AHAMIYATI**

*Raimjonova Xurshidabonu G‘ofurjon qizi  
Andijon davlat pedagogika instituti magistranti.*

**Annotatsiya:** Axborot xurujlarining yosh avlodga xususan o‘smirga va jamiyatga salbiy ta’siri haqida so‘z boradi. Mafkuraviy siyosiy ziddiyatlar, ommaviy madaniyat axborot xavf omilini keltirib chiquvchi deb qaraladi. Axborot-psixologik xavfsizlikni tadqiq etgan olimlarning izlanishlariga diqqat qaratiladi. Maqolada o‘smirlik davrida axborot olish madaniyatini rivojlantirishning psixologik jihatlarioritildi.

**Kalit so‘zlar:** axborot, o‘smirlik davri, axborot-psixologik xavfsizlik, milliy axborot siyosati, axborot olish madaniyati

Kishilik jamiyati paydo bo‘lgandan beri inson axborot olish, tarqatish va undan foydalanishga ehtiyoj sezib keladi. Albatla, qadimda bu jarayon juda sodda ko‘rinishga ega edi. Dunyo taraqqiy etgan sari u murakkablashib, axborotning jamiyatdagi o‘rni yanada oshdi. Hatto, davrimiz ham "Axborot texnologiyalari asri" - deb nom olgani bejiz emas. Bugungi kunda mamlakatimizda axborot sohasida bosqichma-bosqich islohotlar amalga oshirilmoqda. Yurtboshimiz ta’kidlaganlaridek, "...fuqarolarning axborot sohasidagi huquq va erkinliklarini ta’minlash masalasi insonning axborot olish, axborotni va o‘z shaxsiy fikrini tarqatish huquqi hamda erkinligini o‘zida mujassam etgan bo‘lib, bu yurtimizda demokratik jamiyat asoslarini barpo qilishning muhim sharti. tabir joiz bo‘lsa, tamal toshi hisoblanadi."

**MUHOKAMA VA NATIJALAR.** Axborot asri kechayotgan dunyomizda Ommaviy Axborotvositalrining o‘rini tobora ortib bormoqda. Hayotimizga zamonaviy jurnalistikaning eng jadal turlari: internet, televidenie, radio kabi ommaviy axborot vositalariga ijtimoiy reklama tushunchasi kirib keldi. Ularning o‘smir yoshlarning biror bir masala yuzasidan dunyoqarashini shakllantirishdagi hamda tarbiyaviy o‘rni beqiyosdir.

Mamlakatimizda yoshlarga ularning porloq kelajagiga bo‘lgan e’tibor hamma vaqt asosiy va dolzarb muammolardan biri bo‘lib kelgan. Shu sababli barcha jabhalarda olib borilayotgan say-harakatlar, prezidentimiz Shavkat Mirziyayev tomonidan chiqarilayotgan qonun va farmonlarning deyarli barchasida o‘smir yoshlar va ular bilan bog‘liq muammolar, ularning porloq kelajagi uchun kerakli shart-sharoitlar yaratilishi o‘z aksini topmoqda. Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirishda axborot psixologik xavfsizligini ta’minlash yot g‘oyalarga qarshi kurashish uchun asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyada "...ishtirokchi-davlatlar ushbu moddaning amalga oshirilishini ta’minlash uchun qonuniy, ma’muriy va ijtimoiy, shuningdek, ta’lim sohasidagi chora-tadbirlarni ko‘radilar. Ana shu maqsadlarda, boshqa xalqaro hujjatlarning tegishli qoidalariga amal qilgan holda, ishtirokchidavlatlar, jumladan: ishga qabul qilish uchun eng kichik yosh yoki eng kichik yoshlarni belgilab qo‘yadilar; kundalik vaqtdagi ishning muddati va mehnat sharoitiga doir zarur talablarni aniqlaydilar." Yoshlarga oid davlat siyosatining qabul qilinganligi va bu huquqiy asos orqali yoshlari psixologik qo‘llab quvvatlash yosh avlodga etarli ish shart-sharoitlarini ta’minlash kabi ijtimoiy-iqtisodiy masalalar ham ularning kelgusida munosib hayot kechirishlari uchun muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Axborot iste’moli madaniyatini shakllantirish shu

orqali o‘smir shaxsiga ta’sir etishning zamonaviy pedagogik-psixologik yutuqlardan foydalanish maqsadga muvofiq keladi. Axborotga quyidagicha ta’rif berish mumkin “Axborot-manbaalari va taqdim etilish shaklidan qa’tiy nazar, shaxslar, predmetlar, faktlar, voqealar, hodisalar, va jarayonlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar majmui”.

O‘sib kelayotgan yosh avlodni barkamol shaxs etib tarbiyalash ustuvor vazifa sanalar ekan bu borada turli xil yot tahdidlarning oldini olish shaxs ongiga ta’sir etish mumkin bo‘lgan axborotlarning potensial xavfidan ogoh bo‘lish hamda axborot iste’mol madaniyati, o‘smirlik davrida axborot olish madaniyatini rivojlantirish, axborot psixologik xavfsizligi immunitetini shakllantirish muhim ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda. Mafkuraviy-siyosiy ziddiyatlar ta’siri ko‘lami kengayib yosh avlodni ham o‘z domiga tortib bormoqda. Biror siyosiy tuzilma yoxud birlashma tashkilot, davlat haqida turli vositalar orqali o‘zgartirishga intilish avj olmoqda. Internetda keng tarqalayotgan videoo‘yinlarning ayrimlari, kinolar, multfilmlar, ularda ijo etuvchi boshqahramon obrazi asl holatda salbiy shavqatsiz axloqsiz holda tasvirlanishi, bola uni qo‘rqmas kuchli hech kim bilan hsoblashmaydigan agressorni ko‘radi hamda o‘zi ham shu qahromonga o‘xshashga uning harakatlarini takrorlashga intiladi. Axborot psixologik xavfsizlik nafaqat psixologiyada balki, pedagogika, sotsiologiya, falsafa, axloqshunoslik, madaniyatshunoslik, dinshunoslikda turlicha talqinda o‘rganilmoqda.

Axborot-psixologik xavfsizlikni shakllantiruvchi muqaddas kitobimiz “Qur’oni Karimda” “hadis” ilmida, tarixiy manbalarda “Avesto”, qadimgi yozma yodgorliklar, ajdodlarimiz Kaykovus, Y.X.Hojib, A.Yassaviy, A.Farobiy, A.Beruniy, A.Navoiy, H. Koshifiy, B.Naqshband, tomondan yozib qoldirilgan ilmiy falsafiy asarlar, ta’limotlarida o‘z aksini topgan. Ayniqsa ochiq axborot tizimlari sharoitida axborot psixologik xavfsizlik xorijda va mamlakatimizda turli yondashuvlar asosida o‘rganilgan. G‘arb psixologlaridan L.Terman, R. Veys, E.Tiyd, G. Roland, Y. Burgess, M.Odema, P. Boennanlar etnik munosabatlarning psixologik talqinini ochib berishgan bo‘lsa, K.Yang, A.Goldberg, M. Griffist, R. Devis, J.Groxol, K. Surrat, P. Shumaxer, J. Moreyxen-Martinlar shaxsnining axborot psixologik xavfsizligiga xususiy yondashib, “internet-tobelik” tushunchasini izohlab berishgan.

Rus olimlaridan A. Voysunskiy Shaxsnining internetdagi faoliyati va unning turli tarmoqlarga ta’sirini o‘rgangan bo‘lsa, O. Smislova xakkerlarning omma tajribasini his etish haqida, O. Babayeva “axborotlashuvning psixologik oqibatlariga” alohida to‘xtalib o‘tgan. Ijtimoiy psixologiyada axborot tahliliy asosga ega G.Andreyeva, Y. Shoroxova, N. Bogomolova ilmiy izlanishlarida birlamchi guruhlarda psixologik xavfsizlikga ahamiyat berishgan. O‘zbekistonlik faylasuf, sotsiolog, pedagog siyosatshunos olimlari Q.Nazarov, V. Alimasov, J. Shermuhamedova, A. Erkayev, A.Mavrulov, A. Mo‘minov, G. Tulenova, O. Abbosxo‘jayev, B. Axmedov, R. Qo‘chqorov, A. Tashanov, S. Mamashokirov, N.Saliyeva, R. Jo‘rayev, O. Musurmonova, U. Mahkamova, Sh. Qurbonov, D. Ro‘ziyev, B. Xodjayev kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida tarixiy milliy qadriyat shakllanishi, milliy ong vatan tuyg‘usini ongli is qilishga munosabatning yuzaga kelishi va “ommaviy madaniyat”ning salbiy omillari haqida to‘xtalib o‘tadilar.

Hozirgi vaqtda o‘smirlik davriga oid axborot-psixologik xavfsizlik muommosini o‘rganish yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish, Ommaviy madaniyat ta’sirlardan himoya qilishning turli usullari sifatida, internet- tobelik muommosi, shaxs xulq-atvorinining shakllanishida OAV ning ta’siri kabi o‘nlab tadqiqotlar olib borilmoqda. Mamlakatimizda O‘smir yoshdagi o‘quvchilarda kompyuter o‘yinlariga

tobelikka oid tadqiqotda psixologik etuklik asosida yondashilib, 46% o‘smir psixologik etuklikning quyi darajasida, 15 % yuqori darajasi qayd etib o‘tilgan. Sinaluvchilar bilan suhbatda ular o‘yin emas tengdoshlar orasidagi nufuzi muhim ahamiyati ta’kidlashgan. Bugungi kunda axborot xurujlarining turli xususiyatlarini inobatga olgan holda, quyidagi tartibda ko‘rsatib o‘tish maqsadga muvofiq:

1. Xalqaro terorizm;
2. Diniy ekstremizm;
3. Narkotrafik;
4. Qurol-yarog‘ va o‘q-dorilar kontrabandasi;
5. Komyuter firibgarligi;
6. Transplantatsiya uchun inson tana a’zolarining noqonuniy savdosi;
7. Qimmatli qog‘ozlarni qalbakilashtirish va noqonuniy daromadlarni legallashtirish;
8. Transmilliy uyushgan jinoyatchilik;
9. Noqonuniy migratsiya;
10. Missionerlik va prozelitizm harakati.

Ochiq axborot tizimlarining turli mamlakatlarga o‘tkazayotgan ta’siri ham turlicha. Bu hol dunyo mamlakatlarining iqtisodiy, axborot, ma’naviy salohiyatlari va siyosati qanday ekani bilan bog‘liq. Mamlakatimizning 60% ni yoshlar tashkil qilishini hisobga olsak, bu muommoning ko‘lamini sezish qiyin emas. Dunyoda yuz berayotgan shiddatli jarayonlarning har bir mamlakatga o‘tkazayotgan salbiy ta’sirini kamaytirish va ijobiy ta’sirini kuchaytirish uchun shu hodisining mohiyatini chuquroq anglash, uning xususiyatlarini o‘rganish lozim. Bu jamiyatning xulqiy o‘zgarishlarining axborot ta’sirida o‘zgarayotganligidan dalolat berib turibdi. O‘smirlik davrida axborot-psixologik xavfsizlikni shakllantirish nuqtai nazardan yonashadigan bo‘lsak quyidagi jihatlariga diqqat qaratish mumkin.

1. O‘smir faoliyat turining etakchi turiga;
2. Har bir o‘smirning hissiy-irodaviy, ruhiy kechinmalariga;
3. O‘smirlarda intellekt rivojlanganligi;
4. Jamiyatda shakllangan ijtimoiy-ma’naviy muhit omiliga.

Axborot nafaqat mafkuraviy, iqtisodiy, etnik, diniy, shakl chegaralaridan tashqariga chiqib ketdi, balki ko‘p yoqlama ta’sir etish mumkin bo‘lgan va iloji boricha hammaboplikni qo‘llovchi siyosallashtirilgan axborot xujumning asosiy shakliga aylanib ketdi.

**XULOSA** Ilmiy manbalarning tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, axborot vositasida ta’sir ko‘rsatish o‘z ilmiy konsepsiyasiga ega bo‘lib, bunda “Shaxs va ijtimoiy munosabatlar nazariyasi”, “tahdidlarni aniqlash va javob qaytarish” ta’limotlariga tayaniladi. Bugun mamlakatimiz yoshlari jahon bilan hamnafas bo‘lishga intilayotgan barcha narsaga qiziqish bilan yondashuvga ega bo‘lgan ularning ong-u shuuriga egalik qiluvchi yot g‘oyalar kurashuviga guvoh bo‘lib turibmiz. Yosh avlodni insonparvarlik, vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, sof islom tafakkuri negiziga asoslangan g‘oyalar asosida tasdiqlashimiz mumkin. Ta’sir ko‘rsatishning turlari ko‘p bo‘lib, ularning asosiysi sifatida strategic, tezkor va taktik turlarini ko‘rsatib o‘tish mumkin. Ular maqsad va vazifa jihatdan birbiridan farqlanadi. Tahdidlar jamiyatning siyosiy, iqtisodiy, ma’rifiy ma’naviy, ekologik, harbiy, ijtimoiy demografik sohalariga yo‘nairilgan bo‘lishi mumkin. O‘smirlik davrida axborot psixologik xavfsizlikning imkoniyatlarini quyidagi asosda ko‘rib chiqish mumkin. - O‘smir shaxsi egiluvchan xarakter ko‘rinishiga ega bo‘lib, rivojlanish jarayonid xulq-atvorini nazorat qilib borish talab etiladi. - O‘smir psixologik inqiroznining chuqur davrini boshdan

o‘tkazayotganligi sababli o‘zgalarnining qo‘llab-quvvatlovini tuyish xohishi. - Real men va ideal men o‘rtasidagi tafovutlarning bo‘lishi. - O‘smirlarning jinsiy etilishi, gormonal o‘zgarishlar bilan kechib psixologik zo‘riqishlarga olib keladi. - Maqsadlar chegarasini qo‘yib olishda qiyinchiliklar va qadriyatli yo‘nalganlikda ozgarishlarning o‘g‘ir qabul qilinishi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947- sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlar to‘plami.-2017.-6 (766)-son.
2. Umarov.B, Qodirov. U, Karimov.X. Ochiq axborot tizimlarida axborotpsixologik xavfsizlik:darslik. T., 2012.-239. b.)
3. Axborot madaniyati.Maruza matni.
4. Safayev N.S., Ergashev P.S., Amirova N.A.,.Odilova N.G.,.Rahimova I.I, .Ziyavidtinova G. Z. Psixologik yutuklik asosiy mezonlarva rivojlanish qonuniyatlari. Toshkent-2018.
5. Грановская Р. М., Крижанская й, С. Творчэство И перодоление стреотипов.-СПб.: ОМС, 1994.
6. Sharopova S. Yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik asoslari. Monografiya. Guliston sh. 2020.